



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIY TARAQQIYOT
VA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VAZIRLIGI HUZURIDAGI
“LOYIHALAR VA IMPORT KONTRAKTLARINI KOMPLEKS EKSPERTIZA QILISH MARKAZI”
DAVLAT UNITAR KORXONASI

2022-yil 01 dekabr № 45/01.06/1-8448 100084, Toshkent, Amir Temur shoh ko‘chasi, 107-B



Andijon viloyati avtomobil yo‘llari
xududiy bosh boshqarmasi

Texnik topshiriqning ish hajmlari va ularning narx parametrlari
qismida takroriy o‘tkazilgan kompleks ekspertiza natijalari bo‘yicha

XULOSA

Loyiha nomi	4H1119 “Ijtimoyat q-Tojikqishloq q-Maslahat q” a/y ning 3-5,5 km qismini joriy ta’irlash.
Buyurtmachi arizasining raqami va sanasi	2022-yil 24-noyabrdagi 4-sonli ariza (reg. 39668).
Buyurtmachi	Andijon viloyati avtomobil yo‘llari xududiy bosh boshqarmasi.
Loyihani amalga oshirish uchun asos	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.10.2022-yildagi PQ-408-sonli qarori. Xalq deputatlari Andijon viloyati Kengashining 01.11.2022-yildagi VI-44-174-1-0-K/22-sonli qarori.
Moliyalashtirish manbai	Dalvat byudjet mablag‘lari hisobidan.
Loyiha hujjatlari bo‘yicha ekspert xulosasi	O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi “Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi” DUK Andijon viloyati filialining 2022-yil 15-noyabrdagi 73170-sonli yig‘ma ekspert xulosasi.
Obyektning chegaraviy narxi	1 636 421 530 so‘m QQS bilan, 1 422 975 244 so‘m QQSsiz.
Ekspertiza o‘tkazish uchun asos	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-yanvardagi PQ-3464-sonli va 2022-yil 25-iyuldagi PQ-332-sonli qarorlari. p

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi “Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi” DUK “4H1119 “Ijtimoyat q-Tojikqishloq q-Maslahat q” a/y ning 3-5,5 km qismini joriy ta’irlash” obyektini bo‘yicha texnik topshiriqning ish hajmlari va ularning narx parametrlari o‘rganish natijalariga ko‘ra e’tirozlar mavjud emasligini, qabul qilingan narx parametri bozor konyukturasiga muvofiqligini va davlat xaridlarini belgilangan tartibda o‘tkazish mumkinligini ma’lum qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunining (2021-yil 22-apreldagi O‘RQ-684-sonli) 33-moddasiga muvofiq, davlat xaridlari qiymatining bozor narxlariga muvofiqligini baholash uchun davlat buyurtmachi ochiq axborot manbalaridagi axborotlardan yoki boshqa ishonchli manbalardan foydalanishi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 11-iyundagi 261-sonli “Markazlashtirilgan kapital qo‘yilmalar hisobidan amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini amalga oshirishda shartnomaviy joriy narxlarga o‘tish to‘g‘risida”gi qarorining 1-ilovasi 4-bandiga muvofiq buyurtmachi tomonidan aniqlangan boshlang‘ich qiymati tanlov savdolari (tenderlar) o‘tkazishda yo‘nalish hisoblanadi va pudrat shartnomasi (kontrakt) tuzish uchun asos bo‘lib xizmat qilmaydi. Obyektning shartnoma qiymati o‘tkazilgan tanlov savdolari (tenderlar) natijalari bo‘yicha aniqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-son “Shaharsozlik hujjatlarini ekspertizadan o‘tkazish tartiblarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq Buyurtmachi va loyihalash tashkiloti ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma‘lumotlarning to‘g‘riligi va qabul qilingan loyiha yechimlari uchun javobgardir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyuldagi PQ-332-son qarori talablariga muvofiq taqdim etilgan hujjatlarning ishonchliligi va aynan bir xilligi yuzasidan javobgarlik buyurtmachi zimmasiga yuklanishini bildiramiz.

M. Allabergenov

B. Xusanov

G‘. Shodiyev /

L. Dusmuxamedov

X. Matniyozov

